



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yil
yanvar–oktabr oylarida





2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarni oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi
83,3 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
84 048,3
mlrd./so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
41,0 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
119,9 %





2021-yil yanvar–oktabr


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar–oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **84 048,3** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **10 066,8** mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–oktabr oylarida)





2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–oktabr oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| Xizmatlar jami | 84 048,3 | 119,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 8034,1 | 116,5 |
| Moliyaviy xizmatlar | 26167,4 | 119,9 |
| Transport xizmatlari | 8164,0 | 118,2 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | 5010,1 | 113,4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2776,8 | 142,6 |
| Savdo xizmatlari | 20673,9 | 120,4 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 3194,1 | 125,0 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 3893,8 | 129,8 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 1747,3 | 139,0 |
| Ijara xizmatlari | 1206,0 | 121,2 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 542,8 | 156,7 |
| Shaxsiy xizmatlar | 1042,9 | 128,4 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 2583,6 | 107,0 |
| Boshqa xizmatlar | 4021,8 | 101,4 |



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi

Eng yuqori ko'rsatkich

Eng past ko'rsatkich





**2021-yil yanvar–
oktabr**

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021-yil yanvar–oktabr oylarida ularning ulushi **31,1 %** ni tashkil etdi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,6 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmda **31,1%** ni tashkil etdi. 2020-yilning shu davrida kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,5 %**.

2021-yil yanvar–oktabr oylarida yuqori o'sish kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (56,7 %), yashash va ovqatlanish sohalarida (42,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (39,0 %) ta'lim sohasidagi xizmatlarda (29,8 %), shaxsiy xizmatlarda (28,4 %) ijara xizmatlarida (21,2 %) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi – **26,5 %**. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida esa **23,3 %** kuzatilgan.



2021-yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





**2021-yil yanvar–
oktabr**

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021-yil yanvar–oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi, bu esa **20 673,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ularning hajmi **15 849,5 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **24,5 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

**2020 y.
yanvar–oktabr**

Xizmatlar hajmi
15 849,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
103,6 %

Ulushi
24,5 %



**2021 y.
yanvar–oktabr**

Xizmatlar hajmi
20 673,9 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
120,4 %

Ulushi
24,6 %



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar–oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarim qismini, aniqrog'i 24,1 % ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tuzilmasi (2021-yil yanvar–oktabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

6,7 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari

45,1 %

48,2 %



Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ulgurji savdo ulushi 46,6 % ga yetdi.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021-yil yanvar–oktabr oylarida)



2021-yil yanvar–oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **26 167,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ularning hajmi **20 151,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021-yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmi-dagi ulushi **31,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ularning ulushi **31,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **6 016,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021-yil yanvar–oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **119,9** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **128,2** % ga yetgan.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar–oktabr oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **0,1** % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tuzilmasi

(2021-yil yanvar–oktabr oylarida)



Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **88,4** % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi 0,2 % ga to'g'ri kelgan.



**2021-yil yanvar-
oktabr**

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020-y.
yanvar-oktabr**

6 365,0
mlrd. so'm

120,3 %

9,8%

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

1 669,1 mlrd. so'mga

**2021-y.
yanvar-oktabr**

8 034,1
mlrd. so'm

116,5 %

9,6 %






2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021-yil yanvar–oktabr oylarida ularning ulushi **43,7 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020-y.
yanvar–oktabr



2021-y.
yanvar–oktabr



- **Telekommunikatsiya xizmatlari**
- **Kompyuter dasturlashtirish bo'yicha xizmatlari**

- **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**
- **Nashriyotchilik xizmatlari**

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **50,9 %** ga yetgan.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti – kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**2 768,8
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**3 893,8
mlrd. so'm**

**2020-y.
yanvar –
oktabr**



**2021-y.
yanvar –
oktabr**

2021-yil yanvar–oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **3 893,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **93,7 %** ni tashkil etdi.

93,7 %

O'sish sur'atlari, % da

129,8 %

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar–oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **2 768,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati **93,7 %** qayd etilgan.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

1 797,2

2 776,8

2020-y. yanvar–oktabr 2021-y.



**O'sish
sur'ati, % da**

79,4

142,6

2021-yil yanvar–oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **979,6** mlrd. so'mga ortdi.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tuzilmasi

2021-y. yanvar–oktabr

78,7 %

21,3 %



15,0 %

85,0 %

2020-y. yanvar–oktabr

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021-yil yanvar–oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **78,7 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–oktabr oylarida ularning ulushi **85,0 %** ni tashkil etgan.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tibbiyot yonalishidagi tashkilot va korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya xizmatlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar–oktabr

2020-y.

2021-y.

1 160,7
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

1 747,3
mlrd. so'm

86,0 %

O'sish sur'ati

139,0 %

1,8 %

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

2,1 %






**2021-yil yanvar–
oktabr**

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasi, % da (2021-yil yanvar–oktabr oylarida)



2021-yil yanvar–oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulush – **14,9 %** (2020-yil yanvar–oktabr oylarida – **15,3 %**)ni Yunusobod tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangihayot tumanida – **0,9 %** (2020-yil yanvar–oktabr oylarida – **0,1 %**) qayd etildi.



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

| Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–oktabr oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|-------------------|----------------------|--------------|
| | | 2021-y. | 2020-y. |
| Toshkent shahrida | 84 048,3 | 119,9 | 106,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bektemir | 3 146,1 | 150,3 | 102,0 |
| Mirzo Ulug'bek | 7 812,2 | 106,2 | 106,9 |
| Mirobod | 9 745,1 | 113,1 | 109,8 |
| Olmazor | 7 576,4 | 127,8 | 103,8 |
| Sirg'ali | 4 785,8 | 128,3 | 66,8 |
| Uchtepa | 5 148,6 | 112,3 | 103,4 |
| Chilonzor | 9 651,6 | 99,7 | 126,6 |
| Shayxontohur | 9 831,3 | 121,3 | 92,1 |
| Yunusobod | 12 510,4 | 114,6 | 112,5 |
| Yakkasaroy | 7 328,3 | 116,4 | 92,4 |
| Yangihayot | 783,2 | 149,9 | |
| Yashnobod | 5 729,4 | 124,6 | 124,7 |



2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida

2021-yil 1-oktabr holatiga ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**89 640
birlik**

2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

83,3 %



**77 427
birlik**

2020-yilning mos davrida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

Ularning umumiy sonidagi ulushi

82,4 %




2021-yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **75,0 %**, sanoatda **15,7 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **1,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasida **8,3 %** ga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 2021-yil 1-oktabr holatiga tuzilmasi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **74,2 %** ni, sanoatda **16,6 %** ni, qurilishda **8,2 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **1,0 %** ni tashkil etgan.




2021-yil yanvar–oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



41,0 %

2021-yil yanvar–oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **41,0 %** ni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining 2021-yil 1-oktabr holatiga ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **72,0%** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
tel.: 71-203-88-15